

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BYUDJET
TASHKILOTLARINING XARAJATLARI SMETALARI VA SHTATLAR
JADVALLARINI SHAKLLANTIRISH ZARURIYATI**

O‘ralov Akmal Ismatullayevich ¹

¹ O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 25.04.2025

Revised: 26.04.2025

Accepted: 27.04.2025

KALIT SO‘ZLAR:

*byudjet tashkiloti,
byudjet xarajatlari,
shtat jadvallari,
xarajatlar smetasi,
raqamli iqtisodiyot.*

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida byudjet tashkilotlarining xarajatlari smetalari va shtatlar jadvallarini shakllantirish hamda ularning ijrosi bo'yicha nazariy va amaliy asoslari o'rganib chiqildi hamda ulardan kelib chiqqan holda xulosalar va ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi.

KIRISH. Xarajatlar smetasini tuzish, tasdiqlash, ro'yxatga olish, ijro etish, moliya yili davomida o'zgartirishlar kiritish bo'yicha ishlarni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli xokimiyatlarning boshqarma va bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi. Ular o'zlariga bo'ysunuvchi tashkilotlarga tegishli xalq deputatlari Kengashi sessiyasining byudjetni tuzish tartibi va muddati to'g'risidagi qaroridan va moliya organining ushbu masala bo'yicha ko'rsatmalaridan kelib chiqib, kelgusi yil uchun smetalarni tuzish tartibi va muddatlari to'g'risida ko'rsatmalar beradilar. Amaliyotda bu borada ko'plab anglashilmovchiliklar vujudga kelishi sababli masalani izchil tahlil qilish nafaqat moliya organlari xodimlari, ko'plab byudjet tashkilotlarining mutaxassislari uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasini tuzish.

Moliya organlari tomonidan belgilangan byudjet parametrlari hamda tegishli ko'rsatmasi

asosida byudjet tashkilotlari bosh hisobchisi yoki iqtisodchisi tomonidan xarajatlar smetasi tuziladi.

Xarajatlarni hisoblab chiqishda quyidagilarga amal qilish kerak:

- amaldagi xukumat karorlari, farmoyishlari va me'yoriy hujjatlari;
- byudjet tashkilotlarining belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar me'yorlariga;
- tovar va xizmatlarni davlat tomonidan tartibga solinadigan baholari va tariflariga.

Masalan:

xarajatlar smetasiga ish xaqi uchun mablag'lar qonunchilik bilan belgilangan maoshlari va ish xaqi stavkalari va ularga qo'shimcha to'lovlardan, amaldagi namunaviy shtatlar va me'yorlarga rioya qilishdan kelib chiqib kiritiladi. Ishbay usul bilan bajariladigan ishlar uchun ish xaqi xarajatlar smetasiga byudjet yiliga xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan ish xajmlaridan kelib chiqib kiritiladi;

Bunda byudjetdan mablag' oluvchilarning tashkiliy funksiyasiga qarab amaldagi ish xaqi stavkalari va qonunchilikda belgilangan qo'shimcha to'lovlar tarifkatsiyalar asosida ish xaqi to'lanishi lozim.

Mehnatga haq to'lash jamg'armasidan yagona ijtimoiy to'lovni to'lash xarajatlari xarajatlar smetasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq belgilangan stavkalarda, qonunchilikka muvofiq yagona ijtimoiy to'lov to'lanadigan barcha to'lov summalaridan kelib chiqqan holda kiritiladi;

Kommunal xizmatlar uchun xarajatlar limitlar doirasida kommunal xizmatlar uchun baho va tariflarni hisobga olgan xolda hisoblanadi;

davolash, bolalar va boshqa ijtimoiy soha muassasalarida ovqatlanishga ketadigan xarajatlar tashkilotlarning har bir turi uchun tasdiqlangan ovqatlanish kunining o'rtacha yillik sonidan va natural me'yorlaridan kelib chiqib hisoblanadi;

Yuqorida ko'rsatilgan xarajatlar, shuningdek Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifi bo'yicha boshqa xarajatlarni aniqlashda boshqa ko'rsatkichlar va uslublar qo'llanishi mumkin, ularning asoslanganligi xarajatlar smetasini ro'yxatdan o'tkazuvchi tegishli moliya organlari tomonidan tekshiriladi.

Tegishli moliya organlari xarajatlar smetasini chuqurroq o'rganish maqsadida tashkilotlarning xarajatlar smetasini tuzish va ijro etishning istalgan bosqichida ularning qo'shimcha hisob-kitoblarini talab qilishga haqlidirlar.

Byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasini qo‘rib chiqish va tasdiqlash.

Byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasi tuzilgandan so‘ng mazkur tashkilot rahbari yoki rahbar o‘rinbosari tomonidan smeta xarajatlarining tuzilishi ko‘rib chiqiladi va ular tomonidan tasdiqlanadi.

Xarajatlar smetasini qo‘rib chiqish va tasdiqlash O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘kori Kengesining yoki tegishli viloyatlar, shaharlar, tumanlar Xalq deputatlari kengashlari sessiyalarining byudjet haqidagi qarori qabul qilingan kundan boshlab ikki hafta muddat ichida (agar boshqa muddat belgilanmagan bo‘lsa) rasmiylashtiriladi.

Smeta xarajatlarining ko‘rib chiqish va tasdiqlash jarayonida quyidagilarga e‘tibor berish zarur.

Jumladan:

Smeta xarajatlarining belgilangan blankalarda to‘g‘ri tuzilganligini;

xarajatlarni belgilangan parametrlar doirasida hamda choraklar va oylar kesimida to‘g‘ri taqsimlanganligini.

iqtisod qilish tartibiga amal qilgan xolda xarajatlar smetalarida talab etilmaydigan tadbirlar uchun mablag‘lar ajratishga yo‘l qo‘ymasligini;

hisob-kitoblar va asoslantirishlar bilan tasdiqlanmagan summalarini xarajatlar smetalarida qabul qilishga yo‘l qo‘ymasligini e‘tiborga olish zarur.

Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasini ro‘yxatdan o‘tkazish.

Tashkilotlarning xarajatlar smetalari, shuningdek markazlashgan xarajatlar smetalari tasdiqlangandan so‘ng choraklar (oylar) kesimidagi xarajatlarni yillik umumlashmasi byudjet tasnifining bo‘limlari, kichik bo‘limlari, boblari va iqtisodiy tasnifi bo‘yicha choraklarga (oylarga) bo‘lingan holda tegishli moliya organiga ro‘yxatdan o‘tkazish uchun taqdim etiladi.

Shu bilan bir vaqtda setlar, kontingentlar va shtatlar bo‘yicha umumlashtirilgan ko‘rsatkichlar taqdim etiladi.

Tashkilotlarning tasdiqlangan smetasini ro‘yxatdan o‘tkazish tegishli byudjet parametrlari tasdiqlangan paytdan boshlab qirq kundan kechiktirmay (ammo, moliya yilining 10 fevralidan kechikmagan holda) tegishli moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Moliya organlari tomonidan tegishli tartibda tasdiqlangan xarajatlar smetalarini tasdiqlangan byudjetga, shuningdek byudjetni tuzish bo‘yicha qonunchilikka muvofiq tuzilganligini tekshirib ko‘radilar.

Xarajatlar smetasi ushbu xarajatlar smetasida tasdiqlangan barcha guruhlar bo‘yicha xarajatlarni xarajatlar yoyilmasiga va ularning hisob-kitoblariga to‘liq mos kelishini

tekshirgan holda ro'yxatdan o'tkazish uchun qabul qilinadi.

A. Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'lar buyicha xarajatlar smetasini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish.

Tashkilotlar byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetani har yili tuzadilar va tasdiqlaydilar. Bunda, tashkilotlar byudjetdan tashqari mablag'lar tushumlarini va xarajatlarini rejalashtirishni qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiradilar.

Tashkilotlar quyidagi byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetalarni tuzadilar:

- byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi;
- tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi;
- ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushumlar;
- qonunchilikda belgilangan boshqa barcha byudjetdan tashqari mablag'lar.

Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha xarajatlar smetasi daromadlar va xarajatlar qismidan iborat bo'ladi.

Daromadlar qismida moliya yili boshidagi qoldiq va kelgusi yilda kutilayotgan tushumlar miqdori aks ettiriladi. Xarajatlar qismida yil boshidagi qoldiqlar va kelgusi yilda kutilayotgan tushumlar miqdorida amaldagi qonunchiliklarga muvofiq taqsimlanadi.

Tashkilotlar tegishli tartibda byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha xarajatlar smetasini tuzib tasdiqlaydilar va tegishli moliya organlariga ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etadilar.

B. Vaqtinchalik xarajatlar smetasini tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash.

Tashkilotlar vaqtinchalik xarajatlar smetasini tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash oylar kesimida birinchi chorakdan oshmagan davr uchun amalga oshiriladilar. Bunda, har oylik xarajatlar, qoida tariqasida, moliya yilining boshlanishida amalga oshirilishi rejalashtirilmaydigan xarajatlar summasini hisobga olgan holda, o'tgan moliya yilining oxirgi choragi byudjet mablag'larining uchdan bir qismidan oshib ketmasligi shart. Vaqtinchalik xarajatlar smetasida o'tgan moliya yilida amalga oshirilmagan byudjet xarajatlari ko'zda tutilmaydi.

Vaqtinchalik xarajatlar smetasi xarajatlar smetasi tasdiqlangunga qadar amalda bo'ladi, bunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasidagi birinchi chorak uchun xarajatlar summasi tashkilotlarning vaqtinchalik xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan xarajatlar summasidan kam bo'lishi mumkin emas.

Xulosa qilib ta'kidlash o'rinliki, Davlat byudjeti parametrlari qabul qilingandan so'ng hududiy moliya organlari tomonidan tegishli byudjet parametrlari byudjet tashkilotlariga xarajatlar smetasini tuzish uchun yetkaziladi.

Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasini o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, kelgusi moliya yili uchun talab etiladigan xarajatlarni aniq hisoblagan xolda tuzadi, ko'rib chiqadi, tasdiqlaydi hamda moliya organiga ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etadi.

Tegishli moliya organlari xarajatlar smetasini amaldagi qonunchiliklariga muvofiq, parametrlar doirasida aniq hisob-kitoblar asosida to'g'ri tuzilganligini tekshirib, e'tirozlar bo'lmagan taqdirda ro'yxatdan o'tkazadilar.

Smetalarni tuzish, tasdiqlash, ro'yxatlan o'tkazish, ijro etish va ularga moliya yili davomida o'zgartirishlar kiritish jarayonida uchraydigan eng muhim muammolardan biri bu byudjet tashkilotlarida hisobchilarning qo'nimsizligi va bu hol qator qiyinchiliklar keltirishini ko'rsatish mumkin. Byudjet tashkilotlari hisobchilarini qo'nimsizligini kamaytirish maqsadida ularni moddiy rag'batlantirish hamda mas'uliyatini oshirish va shu bilan bir qatorda ularni bilim ko'nikmalarini oshirib borish zarur deb hisoblaymiz.

Yana bir uchraydigan muhokama qilinishi zarur hol bu xarajatlar smetasiga ish haqi xarajatlarini rejalashtirishda shtat birliklarini kiritish - joylashgan hududning geografik va demografik holatlari to'g'ri kelmasligidir. Shu sababli ayrim shtatlar vakant bo'lib ayrim shtatlar yetishmasligi - xarajatlarni rejalashtirishda qiyinchiliklar keltirmoqda. Shtat birliklari kiritish bo'yicha me'riy hujjatlarda belgilangan shtat birliklariga 10 foiz miqdorida o'zgartirish kiritishga mahalliy organlarga vakolatlar berilishi smetalarga ma'lum egiluvchanlik bag'ishlab ularning bajarilishi samaradorligini oshirishga ma'lum hissa qo'shar edi.

Xarajatlar smetasiga kommunal xizmati xarajatlari jumladan issiqlik energiyasi va issiq suv xarajatlarini ajratishda haqiqiy xarajatlari havoning haroratiga bog'liqligi sababli kelgusi yilda kutilayotgan xarajatlarni prognoz qilishda qiyinchiliklarni tug'dirmokda. Bu sohada ham ma'lum egiluvchanlikni kiritishni o'rinli deb bilamiz. Ya'ni havoning past-baland kelishini inobatga olgan holda mablag'larni ma'lum me'yorda ajratishni kamaytirish va yoki aksincha ko'paytirib berish – mahalliy byudjetlarning ijro samaradorligini oshirilishida ma'lum rezervlarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Malikov T.S., Xaydarov N.H. Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma. –T. 2007. -B. 76.
2. Malikov T.S., Xaydarov N.H. Moliya: umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma. –T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2009, -556 b.
3. Mill Dj.Osnovi politicheskoy ekonomii (1848) / Per. s. angl. Obch.red. A.G.Mileykovskogo. -M.: Progress, 1980-1981, -493 s.

4. Moliya : darslik/. SI. Luchina, V.A. Slspova tahriri ostida. 2-nachri.,. M.: Ekonomist, 2006. -S. 220.

5. Kumri Nomozova. Organizational and economic modeling of the system of interregional industrial cooperation as a control object. Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.

6. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of security of economic and ecological systems in the countries of the central Asian Region. International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.

7. Kumri Nomozova. Evolyusiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vydayushixsya uchenyx proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogicheskie texnologii. 2025. – c. 581-587.

8. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq risklarni sug‘urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy ryнок Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.

9. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionnyy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomicheskoe razvitie i analiz, 2024. - s. 338-345.

10. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug‘urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.

11. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvidan o‘tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.

12. Qumri Nomozova. O‘zbekistonda tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug‘urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy ryнок Uzbekistana. 2024. – 7-10 b.

13. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik tavakkalchiliklarini sug‘urtalash bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribalari. Journal of engineering, mechanics and modern architecture. 2023. – 109-115 b.

14. Qumri Nomozova. O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashda sug‘urtaning o‘rni. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2023.

15. Qumri Nomozova. Tadbirkorlikda tavakkalchilikni sug‘urtalashda «big data» raqamli andarrayting tizimlarini qo‘llash istiqbollari. Straxovoy ryнок Uzbekistana. 2023. – 11-13 b.

16. Kumri Isoevna Nomozova. Napravleniya razvitiya straxovyx uslug v sfere malogo biznesa i chastnogo predprinimatelstva v uzbekistane. World science: problems and innovations. 2020. - s. 167-169.

17. Nomozova Qumri Isoevna. “Tadbirkorlikda tavakkalchiliklarni sug‘urtalash va uni O‘zbekistonda rivojlantirish istiqbollari”. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati. T.: TMI, 2021.

18. Nalogi: Uchebnoe posobie / Pod.red.D.G.Chernika – 2-e izd. – M.: Finansi i statistika, 1996, -S. 78-79.

19. Olimjonov O.O. Bozor iqtisodiyotiga o‘tich davrida soliq siyosati. –T.: “Hayot va iqtisod”, 1992. -B. 37.

20. Olimjonov O.O. Moliyaviy menejment. – T.: Akademiya, 1999. - 245 b.

21. Polichuk A.L. Sovremennie tendensii transformatsii sistemi sistemi gosudarstvennogo finansovogo kontrolya. Dissertatsiya nasoi skanie uchenoy stepeni k.e.n. Moskva. 2003, -198 s.

